

BADIIY MATNNING PSIXOLINGVISTIK TAHLILI**Fazliddinova Feruza Avaz qizi***Buxoro davlat universiteti o‘zbek tilshunosligi va jurnalistika
kafedrası magistranti*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada badiiy matnlarda inson hissiyotlari — xususan kulgi va yig‘ining psixolingvistik tahlili yoritiladi. Matnlarda ifodalangan emotsional holatlarning lingvistik vositalar bilan qanday aks etishi, bu holatlarning inson ruhiyatiga ta’siri va ularning bilvosita yoki bevosita ifodalanishi o‘zaro tahlil qilinadi. Misol tariqasida Abdulla Qahhorning “Asror bobo” hikoyasi, Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romani va boshqa adabiy namunalar asosida analiz olib boriladi.*

Kalit so‘zlar: *psixolingvistika, emotsiya, kulgi, yig‘i, badiiy matn, lingvistik tahlil, ichki holat, verbal ifoda, noverbal vosita*

Psixolingvistika — bu psixologik omillar va til birliklari o‘zaro qanday aloqada bo‘lishini o‘rganadigan yo‘nalishdir. Ushbu yondashuv asosida matnning ichki emotsional holatini tahlil qilishda til vositalari va psixik holatlar uyg‘unligi muhim rol o‘ynaydi. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, psixologik hamda badiiy adabiyotlarni farqlay bilish zaruriy hisoblanadi. Psixologik asarlarda insonning emotsional holatlari — affekt, hissiyot, kayfiyat va stress kabi jihatlar aniq tasniflangan holda ko‘rib chiqiladi. Badiiy adabiyot esa bu his-tuyg‘ularni san’atkorona ifoda etish orqali o‘quvchiga yetkazish imkoniyatiga egadir. D.Xudoyberganova ozining “Matnning antroposentrik tahlili” nomli monografiyasida badiiy matnga M.Yo‘ldoshevning quyidagi fikrlari orqali ta’rif beradi “insonni ruhan to‘lqinlashtirish, yig‘latish, kuldirish, hayolot olamiga yetaklash, o‘yga cho‘mdirish, estetik tafakkurini shakllantirish, voqea hodisalarga teran, boshqacha nazar bilan boqishga o‘rgatish kabi ko‘plab imkoniyatlarini o‘zida mujassam qilgan bo‘ladi”. Insonning ichki kechinmalari ifodalangan badiiy matnlarni tahlil qilar ekanmiz, shuni ko‘ramizki, undagi sintaktik qurilmalar va matn tuzishda xizmat qiluvchi til birliklari aynan tasvirlanayotgan hissiyotning tabiatiga bog‘liq bo‘ladi. Shu bois yozuvchi tanlagan so‘zlar mazmun jihatdan nafaqat muvofiq, balki o‘quvchining ruhiyatiga bevosita ta’sir qiladigan, unga o‘sha holatni his qiladigan darajada ta’sirchan bo‘lishi zarur. (Xolibekova, O. K.: «Psixolingvistika va badiiy matn» Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar: Ilmiy va ilmiy texnik onlayn konferensiya materiallari. 2023– B 18)

Abdulla Qahhorning «Asror bobo» hikoyasi

Kampir odatdagidan chaqqonroq harakat qilar va mumkin qadar so‘zlashga tirishar edi. Asrorqul sochiqqa qo‘lini artayotib unga razm soldi va kulib:

– E, qo‘zichog‘im, yana yig‘labsiz-da,– dedi.

Kampirning yuzida kulgiga o‘xshagan bir nima aks etdi, lekin darrov yuzini burib, kapkir bilan qozonni qirar ekan, jerkib:

– Hadeb yig‘i to‘g‘risida gapirmang!– dedi.

Lekin ovqatni keltirganida uning ko‘zida yosh aylanar edi; ovqatni o‘rtaga qo‘yib ko‘zini artdi.

– Qurib ketgur shu o‘tinning tutuni biram achchiq ekanki!

– O‘tir, – dedi Asrorqul turpdan bir bo‘lagini og‘ziga solib,– achchiq tutunni biz ko‘rganimiz yo‘q, achchiq tutun urush bo‘layotgan joylarda.

Ovqat mahalida kampir juda betoqat bo‘lib o‘tirdi; bir martaba ichidan yig‘i to‘lqinlanib kelganda o‘zini tutish uchun Asrorqulga xarxasha qildi:

– Muncha kurt-kurt qilib chaynaysiz! (Abdulla Qahhor. Tanlangan hikoyalar. Toshkent.: «O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2013. –B 53)

Ushbu parchadagi kampirning yig‘isi uning ichki ruhiy holatini aks ettiradi. Bu yerda yig‘lash asosan bir necha sabab bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin:

1. Hayotidagi iztiroblar va ularning natijasida kelib chiqadigan ichki og‘riq(ya’ni farzandi dog‘idagi og‘riqlari)

2. O‘zini boshqarishga va yig‘ini tan olmaslikka bo‘lgan urinish (masalan, yig‘i o‘rniga xarxasha qilishi).

Yig‘i bu yerda stressni yengillashtiruvchi vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Kampir yig‘lash orqali ichki iztiroblaridan xalos bo‘lishga urinadi, lekin vaziyat sababli ochiqdan-ochiq yig‘lashdan o‘zini tiyadi. Kampir yig‘laganini harakatlari (ko‘z yoshlarini darrov artishi) va so‘zlari («qurib ketgur shu o‘tinning tutuni») bilan inkor etishga urinadi. Bu verbal va noverbal harakatlar orqali yig‘ining bilvosita ifodalanishini ko‘rsatadi.

“Qurib ketgur shu o‘tinning tutuni biram achchiq ekanki!” – bu gapda yig‘i sababi «tutun» bilan bog‘lanadi, lekin aslida u hissiy iztirobni yashirishga xizmat qiladi.

“Hadeb yig‘i to‘g‘risida gapirmang!” – kampirning bu jerkishida uning o‘z his-tuyg‘ularini yashirishga bo‘lgan dastlabki qadami bo‘lib xizmat qiladi.

Kampirning **xarxasha qilishida** yig‘idan saqlanishga bo‘lgan agressiv munosabatni ko‘rish mumkin. Masalan:

“Muncha kurt-kurt qilib chaynaysiz!” – bu gap orqali u ichki iztiroblarini boshqalarga va o‘zining holatiga nisbatan norozilik shaklida ifodalaydi. Bu yig‘ining bilvosita ifodasi bo‘lib, hissiy yengillikka erishish maqsadi ko‘zlanadi.

*Kampirning yuzida **kulgiga o‘xshagan bir nima aks etdi*** – bu jumla orqali hissiy kontrast yuzaga kelganiga guvoh bo‘lish mumkin

Ushbu holat urush yillari bilan bog‘liq bo‘lib, urushda og‘li halok bo‘lganini eshitgan onaning ichki iztiroblari va bu sirni turmush o‘rtog‘i bilib qolish qo‘rquvi kontrast qilib qo‘yiladi. Yig‘i insonning og‘ir sharoitlarga bardosh berish uchun hissiy yengillikka erishtiruvchi vosita bo‘lib xizmat qilishi mumki. Biroq bu holatda kampir yig‘ini ochiq ifodalashdan o‘zini tiyib, hissiyotlarini harakatlari hamda so‘zlari ortiga yashirishga urinadi. Bu matndagi yig‘i psixologik og‘irlik, ichki iztirob va hissiy kontrastlarning birlashmasidan kelib chiqadi.

Abdulla Qodiriyning «O‘tkan kunlar» romani

*Bu keyingi baytka quloq solg‘uchi qolmadi. Chunki **yonidagi qizg‘a osilib yig‘lay boshlag‘an** Kumushbibiga har kim taajjubda, har kimning ko‘zi, qulog‘i shunda edi.*

– Nima bo‘ldi, Kumush?

– Nega yig‘laysiz, Kumush opa?

– Birar joying og‘riydirmi, Kumush?

*Kumushbibi o‘z ustiga duv yig‘ilg‘an qizlarga ko‘zini ochib qaradi-da, hushyor tortqanlardek bir harakat qilib qo‘ydi va **tez-tez cho‘ntagidan ro‘ymolini olib ko‘zyoshisini quritdi.***

– Nega yig‘lading-a?

*Bu savolni berguchi Gulsinga Kumush kuch bilan **iljayib qaradi-da:***

– O‘zim... – dedi.

– *Voy sho‘rginangga sho‘rva to‘kilsin, Kumush!* – dedi Gulsin, – *men shunday erni topib teksam boshim ko‘kka yetar edi!*

*Gulsinning gapiga qizlar **kulishdilar**. Kumush juda xafa ko‘ringanlikdan uning ko‘nglini ochmoqqa to‘g‘ri kelar edi. Shuning uchun boshqa o‘yinlarni qo‘yaturib majlisning eng qiziq tarafi bo‘lib sanalg‘an **lapar** aytishka ko‘chdilar. Gulsin kuyav ro‘lini o‘ynar, Xonimbibi Kumush ro‘lida, ikkisining bir-birisiga qarab o‘qishqan **laparlari barchani kuldirib, ichaklarni uzar darajada**. Biroq Kumushning **tishining oqini ko‘rish juda qiyin**, uning hamma ishi faqat mungg‘ayib xayollanishqina... (Abdulla Qodiriy. O‘tkan kunlar: Roman. –Toshkent.: «Yangi nashr», 2019. – B 53)*

Psixolingvistik tahlilda yig‘i va kulgi insonning asosiy emotsional reaksiyalari sifatida turli vazifalarni bajaradi. Yig‘i Kumushning ichki kechinmalarining tashqi ko‘rinishi bo‘lib, u boshqalarning diqqatini tortadi. Yig‘i nafaqat individual holat, balki kommunikativ noverbal vosita sifatida atrofdagilarning hamdardligini uyg‘otadi. Kumushning yig‘lashi ichki iztirob, qayg‘u yoki stressdan xalos bo‘lish reaksiyasi sifatida namoyon bo‘ladi. Uning yig‘i sababini yashirishga xizmat qilgan qisqa javobi, «O‘zim...» deyishi, ichki his-

tuyg‘ularini oshkor qilishni xohlamasligini bildiradi. Shu o‘rinda yig‘i orqali insonda kechadigan psixologik o‘zgarish lingvistik nuqtqda ham aks etadi, ya’ni yig‘i paytida gapirish qisqa va so‘zlarni to‘liq ifodalay olmaslikka olib keladi.

Bu vaziyatda yig‘i va kulgi bir-biriga qarama-qarshi qilib qo‘yiladi. Gulsinning hazillari va lapar aytishi yig‘ini kulgi ortiga yashiradi va atrofdagilarni chalg‘itib, muhitni yengillashtiradi. Kulgi ijtimoiy aloqa vositasi sifatida guruhdagi muvozanatni tiklashga xizmat qiladi. Stressni yengillatish va hissiy mo‘tadillikni ta‘minlash kulgining asosiy psixologik vazifalaridan biridir. Bu orqali atrofdagi qizlar Kumushning holatidan chalg‘ib, ularni yana umumiy kayfiyatga moslashtirishga harakat qiladi.

Yig‘i va kulgi bir-biriga qarama-qarshi bo‘lgan reaksiyalar sifatida inson ruhiy holatida aks etadi. Kumushning yig‘lashi va boshqalar kulgusi o‘rtasidagi kontrast uning ichki kechinmalari va guruh qizlarining tashqi munosabati bu zidlikni yaqqol ochib beradi. Qarama-qarshi qo‘yilgan ushbu ruhiy holatlarda kulgi vaziyatni yengillashtiruvchi vosita sifatida yetakchilikni qo‘lga oladi, yig‘i esa passivlikni aks ettiradi.

Yig‘i va kulgi insonning ichki dunyosi hamda ijtimoiy muhit o‘rtasidagi aloqani chuqurroq anglash imkonini beradi. Kumushning yig‘lashi uning ichki muammolari va hissiy og‘irligini bildirsa, qizlarning kulgisi guruh muvozanatini tiklash va Kumushning ko‘nglini ko‘tarishga qaratilgan. Bu qarama-qarshi reaksiyalar insoniy munosabatlar va his-tuyg‘ularni boshqarishning murakkabligini ko‘rsatadi.

O‘tkir Hoshimovning «Ikki eshik orasi» romani

Bahor oqshomlaridan birida siniq piyolaning orqasiga o‘sma ezib, qoshimga qo‘yib o‘tirsam, daladan qaytgan oyim ko‘rib qoldi.

*- Mayli, qizim, - dedi **kulimsirab**. - Yoshing o‘n yettiga ketyapti. Erta-indin sovchi keladi. O‘zingga qarab yur...*

Uyalib ketdim.

- Boring-e! - degancha oshxonaga qarab qochdim. (Hoshimov, O‘. Ikki eshik orasi: Roman. – Toshkent.: «Sharq», 2012. –B 73)

Bu holatda onaning kulimsirashi vazifasi qizning yoshiga mos o‘zini tutish jarayoniga bo‘lgan munosabati ijobiy ekanligini ko‘rsatadi. Oyisi va Robiya o‘rtasidagi yaqinlikni namoyon etadi. Kulimsirash muloqotni iliqlashtiradi va uyatli vaziyatni yumshatadi. Qizning qochib ketishi esa qizlarga xos hayo va uyatchanlikning ifodasi sifatida talqin qilinishi mumkin.

- Ayniqsa, shu qizimni yaxshi ko‘raman. Potmamniyam yomon demayman-ku, sal lachapo‘shroq. Kir yuvaman, deb suv qaynatsa, tagiga oldirib yuboradi!

*Fotima kelin xafa bo‘lmaydi. Qaytaga **qah-qah urib kuladi**.*

- *Unaqa demang, oyijon, kechagi qilgan shilpildog‘imni maqtab-maqtab yedingiz-ku!* (Hoshimov, O‘. Ikki eshik orasi: Roman. – Toshkent.: «Sharq», 2012. –B 74)

Fotimaning javobi va kulgisi uning samimiyligini ko‘rsatishga xizmat qiladi. Uning qah-qah urib kulishi va qaynanasining gapini hazilga burib, vaziyatni yumshatishga hamda suhbatdagi iliqlikni oshirishga xizmat qiladi.

- *Qomating Zo‘ramday bo‘pqopti, Robi! - dedi kulib. - Ikkalangga bir qolipda tiksam bo‘laverarkan.*

- *Tap-tayyor kelin-da! - Bir qo‘lida o‘g‘ilchasini ko‘targancha, bir qo‘lida saqich chaynayotgan besh yashar qizchasini yetaklagan Fotima kelin ayvonga yaqin kelib qah-qah urib kuldi. - Nasib etsa yaqinda Robiyaxonning holvasini eymiz, oyi! Ochilboy oh desa, o‘pkasidan oy ko‘rinib yuribdi.* (Hoshimov, O‘. Ikki eshik orasi: Roman. – Toshkent.: «Sharq», 2012. –B 77)

Bu yerda hazil mutoyibaga qo‘shilgan Fotima kelinning qah-qah urib kulishi uning hazillashishga moyilligi, tabiatining naqadar sho‘x-shaddodligini ochib berishga xizmat qiladi. Ayol kishining qah-qah kulishi xarakterdan tashqari vaziyatga ham bog‘liq, ya‘ni Fotima bu yerda o‘zini qulay, erkin, hissiyotlarini ko‘rsatishga ochiq insonlar davrasida ekanligini ko‘rsatadi.

Yig‘i va kulgining lingvistik xususiyatlari. Yig‘i va kulgi inson his-tuyg‘ularining ikki asosiy — aks holatdagi emotsional ifodasidir. Yig‘i — ruhiy og‘riqni, iztirobni yengillatish vositasi bo‘lsa, kulgi esa inson miyasini tinchlantiruvchi, ijtimoiy muhitga moslashishni osonlashtiruvchi reaksiyadir. Badiiy matnlarda bu ikki holatning uyg‘unligi va kontrasti muallif niyatini ifodalashda katta ahamiyatga ega.

Verbal va noverbal vositalar orqali emotsiyalarning ifodalanishi. Yig‘i yoki kulgi ko‘pincha bevosita aytilmaydi — u harakatlar, tana tili, inkor etuvchi so‘zlar va teskari mazmundagi iboralar orqali beriladi. Bu esa psixolingvistik tahlilda emotsiyalarni yuzaga chiqaruvchi muhim indikatorlarga aylanadi.

Fikrimiz so‘nggida ayta olamizki, badiiy matnlarda yig‘i va kulgi inson ruhiy holatining bevosita aksidir. Ular orqali muallif o‘quvchini qahramonning kechinmalariga sherik qilishga, uni estetik jarayonga jalb etishga erishadi. Yig‘i va kulgi nafaqat hissiy vosita, balki lingvistik birliklar, matn qurilishi, kontekst va stilistik tanlovlar orqali ham ifodalanadi. Bu esa psixolingvistik tahlilni badiiy matnni chuqurroq anglashda muhim usullardan biriga aylantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xolibekova, O. K.: «Psixolingvistika va badiiy matn» Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar: Ilmiy va ilmiy texnik onlayn konferensiya materiallari. 2023.
2. Abdulla Qahhor. Tanlangan hikoyalar. Toshkent.: «O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2013. –136 b.
3. Abdulla Qodiriy. O‘tkan kunlar: Roman. –Toshkent.: «Yangi nashr», 2019. – 167 b.
4. Hoshimov, O‘. Ikki eshik orasi: Roman. – Toshkent.: «Sharq», 2012. –624 b.